Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320141

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI

IBOYEV SAXIDDIN MANSUROVICH
Mustaqil izlanuvchi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent, O'zbekiston
iboevsakhiddin@gmail.com

So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni zamonaviy global talablar asosida rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayon, avvalo, ta'lim muassasalarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ilmiy innovatsiyalarni joriy etish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega bo'lishini talab etadi. Shu bois ta'lim tizimini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida qaralmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidaganidek "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevrini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhim sharoitlarni yaratishimiz kerak. Buning uchun, avvalambor, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"153. Davlatimiz rahbarining ushbu sohaga bo'lgan e'tibori ham mamlakatimiz uchun ta'lim tizimining nechog'lik ahamiyatli ekanligini ko'rsatib turibdi. Tizimni takomillashtirish esa avvalambor sohada to'g'ri tizimli ishlarni tashkil etish va uni moliyaviy qo'llab quvvatlashga bog'liq.

Ta'lim muassasalarini moliyalashtirish jarayoni ko'p qirrali va murakkab iqtisodiy tizim bo'lib, unda davlat byudjeti mablag'lari, qo'shimcha byudjetdan tashqari manbalar, xususiy sektor ishtiroki, xalqaro grantlar va donor tashkilotlarining ko'magi muhim o'rin tutadi. O'z navbatida, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi mavjud resurslardan samarali foydalanish, mablag'larni adolatli taqsimlash, shaffoflikni kuchaytirish va ta'lim oluvchilarning sifatli bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan chambarchas bog'liqdir.

153 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020-yil

Published: 05.06.2026

Cite this article: Iboyev Saxiddin Mansurovich (2026). Ta'lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish masalalari. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320141

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarining faoliyatida izchil bozor mexanizmlarini joriy etish, xususiy sektor bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosidagi loyihalarni rivojlantirish, moliyaviy boshqaruv tizimini raqamlashtirish kabi yo‘nalishlar yangi yondashuvlar talab qilmoqda. Ayniqsa, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt tizimi, endowment jamg‘armalari, homiylik mablag‘lari va grantlar ulushining ortib borishi moliyalashtirishning diversifikatsiyalangan modelini shakllantirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Ta’lim sohasini moliyalashtirish mexanizmlari hamda uni takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan turli ilmiy tadqiqotlar olib borilib, nazariy yondashuvlari ilgari surilgan.

S.A.Belyakov “ta’limni moliyalashtirish – ta’lim xizmatlariga haq to‘lash bilan bog‘liq munosabat bo‘lib, ushbu xizmat ta’lim oluvchiga uning o‘zi yoki oilasi tomonidan emas, balki ushbu xizmatdan foydalanmaydigan davlat tomonidan ko‘rsatilishini”154 e’tirof etgan.

Iqtisodiyotchi olim T. Shultsning ta’kidlashicha, oliy ta’limga yo‘naltiriladigan investitsiyalar jamiyatning eng yuqori daromad keltiruvchi sarmoyalaridan biridir. Iqtisodchining fikricha, “davlat va xususiy sektor tomonidan oliy ta’lim tizimini moliyalashtirish nafaqat mehnat unumdorligini oshiradi, balki iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilanishiga xizmat qiladi”155. T. Shults oliy ta’lim xarajatlarini iqtisodiy nuqtayi nazardan iste’mol emas, balki kelajakda ko‘p barobar daromad keltiruvchi kapital qo‘yilma sifatida baholash lozimligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, ta’limga sarmoya kiritish yangi texnologiyalarni yaratish, innovatsion fikrlashni rivojlantirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning eng samarali yo‘lidir. Shu bois oliy ta’lim tizimi barqaror moliyalashtirilmasa, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi izdan chiqishi mumkinligini olim o‘z asarlarida qayd etgan.


Ta’lim tizimining moliyalashtirish mexanizmining muhim elementi bo‘lib moliyalashtirish manbalari hisoblanadi. Bugungi kunda jahon amaliyotida ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda asosan 2 ta manbadan foydalaniladi:

– byudjet mablag‘lari;

– byudjetdan tashqari mabalag‘lar.

154 Беляков С. А. Финансирование образования: теория, история, государственная политика. — Москва: Университетская книга, 2005. — 312 с.

155 Schultz, T. W. (1971). Investment in Human Capital: The Role of Education and of Research. New York: Free Press.



1-rasm. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ta’lim xarajatlarining ulushi (foizda)[156]

Ushbu rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamalakatimizda ta’lim sohasiga ajratilayotgan mablag‘larning davlat byudjetidagi ulushi bir qator xorijiy mamlakatlardan qariyb 2-3 barobar ko‘proq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, bu ko‘rsatkich Italiya, Yaponiya, Fransiya, Germaniya davlatlaridagi ko‘rsarkichdan o‘rtacha 3 marta, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanadagi ko‘rsatkichdan esa qariyb 2 marta ko‘pligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekistonda ta’limga ajratiladigan mablag‘ning boshqa davlatlarga nisbatan ancha yuqori bo‘lishi, avvalo, so‘nggi yillarda ta’lim tizimini yangilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilayotgani bilan bog‘liq. Maktab va bog‘chalar qurilishi, o‘qituvchilar oyligini oshirish, oliy ta’limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish kabi chora-tadbirlar katta moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bunga qo‘shimcha ravishda, O‘zbekiston aholisi yoshlar ulushi katta bo‘lgan davlatlar qatoriga kiradi, bu esa ta’lim tizimiga bo‘lgan talabning yuqori bo‘lishiga olib keladi.

Shu sababli davlat byudjetida ta’lim xarajatlarining yuqori ulushi tabiiy holat sifatida ko‘riladi. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich nisbatan past bo‘lsa-da, u yerda ta’lim infratuzilmasi ilgariroq shakllangan va xususiy sektorning ulushi katta. O‘zbekistonda esa ta’lim tizimini yangilash jarayoni davom etayotgani uchun qo‘shimcha mablag‘ talab etiladi.

Neoliberal modelda oliy ta’lim bozor tamoyillari asosida tashkil etilib, moliyalashtirishning asosiy manbai sifatida to‘lov-kontrakt tizimi, talabalar granti, kreditlar, universitetlarning o‘z-o‘zini moliyalashtirish darajasini oshirish va xususiy sektor ishtiroki kuchaytiriladi. Bu model AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya kabi davlatlarda keng qo‘llanilib, oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirishga xizmat qilgan.

156 https://edu.uz Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Ijtimoiy-demokratik (yoki Skandinav) modelida oliy ta’lim davlat tomonidan to‘liq yoki katta qismida moliyalashtiriladi. Shvetsiya, Norvegiya, Daniya kabi davlatlar oliy ta’limni “ijtimoiy ne’mat” deb qaraydi va unga investitsiya qilishni iqtisodiy taraqqiyotning zarur sharti sifatida ko‘radi. Talabalarga stipendiyalar, grantlar va bepul kontrakt asoslari taqdim etiladi. Universitetlar moliyalashtirilishi natijaga yo‘naltirilgan davlat buyurtmalari orqali tartibga solinadi.

Aralash model aksariyat Yevropa davlatlarida shakllangan bo‘lib, unda oliy ta’limni moliyalashtirish davlat mablag‘lari va to‘lov-kontrakt tizimi o‘rtasida taqsimlanadi. Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Polsha kabi mamlakatlarda davlat ta’limning asosiy xarajatlarini qoplaydi, biroq ayrim dasturlar bo‘yicha kontrakt asosidagi o‘qish ham mavjud. Universitetlar grantlar, ilmiy loyihalar, xalqaro fondlar orqali qo‘shimcha mablag‘ jalb qiladi.

Yangi tizimga o‘tadigan OTMlarda davlat granti va tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlash davom etadi. Bunda davlatning oliy ta’limga yo‘naltiradigan mablag‘i kamaymaydi. O‘z-o‘zini moliyalashtirish tizimining joriy etilishi oliy ta’lim sohasining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi va budjet mablag‘larining ajratilishini kamaytirmaydi. Aksincha, davlat iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlashda investor bo‘lib qoladi.

Moliyaviy mustaqillik Oliy ta’lim muassasalariga har tomonlama rivojlanish sari turtki bo‘lmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki moliyaviy mustaqillik sabab yil oxirida ta’lim tashkilotlari hisobida shakllanayotgan daromad ularning keyingi ish faoliyati uchun yaxshigina rag‘batlantirish bo‘lmoqda. Yil oxirida daromad emas davlat byudjetiga qaramlik asosida xarajlari oshib ketgan ta’lim tashkilotlari esa o‘zlariga xulosa chiqargan holda keyingi yilda daromadga chiqish uchun yaxshigina tajriba orttirmoqdalar.

Xulosa

Ta’lim muassalarini amaliyot bilan bog‘lovchi bo‘gin hisoblangan oliy ta’lim muassasalariga bosqichma-bosqich moliyaviy mustaqillik berilishi ularning tashabbuskor bo‘lishi, byudjetdan tashqari manbalarni ko‘paytirishi va raqobatbardoshligini oshirishi uchun muhim zamin yaratadi. Ta’lim tizimining barqaror rivojlanishi uchun moliyalashtirish modelining faqat hajm jihatdan emas, balki mazmun, shaffoflik va natijaga yo‘naltirilganlik bo‘yicha ham takomillashib borishi zarur. Shu bois ta’limni moliyalashtirishning zamonaviy, iqtisodiy asoslangan va moslashuvchan mexanizmlarini qo‘llash kelgusida soha sifatini oshirishning eng muhim shartlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020-yil.

2. Schultz, T. W. Investment in Human Capital: The Role of Education and of Research. New York: Free Press. 1971 y

3. Stiglitz, J. E. Creating a Learning Society: A New Approach to Growth, Development, and Social Progress. New York: Columbia University Press. 2014 y

4. Беляков С. А. Финансирование образования: теория, история, государственная политика. — Москва: Университетская книга, 2005. — 312 с.

5. Buzrukxonov S. Oliy ta’lim tizimini moliyalashtirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 156 b.

6. Jumayev N. Oliy ta’limni diversifikatsiyalash va moliyalashtirish manbalarini kengaytirish masalalari // Iqtisodiyot va ta’lim. – 2020. – №3. – B. 45–52.

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
— Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —